

## EKZERSIS - OBRAZLI QO'LLAR

*Olimjonova Zarnigor Shokirjon qizi*

*Najmiddinova Sarvara Samariddinovna*

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining*

*Farg'ona Mintaqaviy filialining*

*Qo'girchoq teatr aktyorligi 2-kurs talabalari*

*[najimiddinovasarvara@gmail.com](mailto:najimiddinovasarvara@gmail.com)*

*[zulfizarshakirjanovna@gmail.com](mailto:zulfizarshakirjanovna@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, qo'g'irchoq teatr aktyorlariga zarur bo'lgan qo'l harakatchanligi uchun mashqlar va ekzersis ya'ni qo'llar orqali obraz yaratish haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ekzersis, obraz, qo'l, harakat, hayvonot, barmoq, ijod.

Qo'llar orqali obraz yaratish uchun qo'l plastikasi ustida ishlangan bo'lishi lozim. Agar qo'llar maxsus mashqlar orqali charxlangan bo'lsa, u har qanday obrazni oxshata oladi. San'at sohasida ta'lim olayotgan aynan, "Qo'g'irchoq teatr aktyor"ligida tahsil olayotgan yoshlar uchun ekzersis-obrazli qo'llar muhim hisoblanadi. Sababi avval, qo'llardan so'ng esa qo'g'irchoqlar orqali obrazlarni ochib beradi. Umuman olgan, obrazli qo'llar ijodkor talaba yoshlarning boshlang'ich saboqlari hisoblanadi.

Kurs talabalari qo'llari orqali qush - kapalaklar, quyon, orgimchak, qurt, ilon, ukosh, gul va daraxilarni obrazini yaratadi, so'ng shart-sharoitdan kelib chiqqan holda, harakatga keltirilib bu persanajlar orasida bir-biriga nisbatan turli xil munosabatlar o'rnatishadi.

Bir so'z bilan aytganda, bu jarayon badiiy sahna haqiqatiga aylanib, yagona bo'lgan turli xildagi xarakterli obrazlar kompozitsiyasini shakllantiradi. Bu obrazlar kompozitsiyasi metodik jihatdan «EKZERSIS» deb nom olgan. Bu shakldagi obrazi kompozitsiyani har darsda yangi topilgan har xil xarakterli ega bolgan persanajlar orqalito dirilgan holda, ishlanib boriladi. Bu jarayon metodik jihatdan qo'yilgan aniq maqsadasosida bajariladi va unga erishguncha davom etilb boriladi. Yuqorida keltirilgan «obrazli qo'llar» misolida qo'lar bilan yaratilgan obrazlar (qushlar, quyon, o'rgimchak, ilon, gul, daraxt) aynan ularning xati-harakatlarini borligicha (shirmaga) to'siq ustidagi maydonchaga ko'chirish shart emas. Bu obrazlar talabaning ko'rgan, kuzatgan, o'qigan va tahlil qilib tanlangan jodiy tasavvurining mahsulidan yaratilgan bo'lib, aynan go'g'ichoq teatrisan'atiga xos xususiyalartga ega bo'lgan holda aniq o'rganilib, shu yo'nalish bo'yicha ish olib borilishini taqoza etadi. Ish jarayoni o'z ichiga uch xil yo'nalishini qamrab oladi.

### ***1. Qo'l va barmoq mashqlari.***

**2. Qo'l harakatchanligini tarbiyalash.**

**3. Ekzersiz-obrazli qo'lar bilan ishlash jarayoni.**

Biz bilamiz-ki, musiqaviy yo'nalish qo'g'irchoq teatri san'atining asosini tashkil qiladi. Hatto qadimda ham milliy- an'anaviy qo'g'irchoq teatr tomoshalarini musiqasiz kechmagan. Tomosha boshlanishidan oldin sozandalar qo'llarida har xil cholg'u asboblari bilan saf tortib turganlar.

So'ng tomoshakuy chalinishi bilan boshlangan. Keyinchalik qo'g'irchoq toshalarini Korfarmon- ya'ni ish boshqaruvchi qo'lida childirma cholib, tomoshani boshidan oxirigacha ishtirok etib olib borgan.

Keyinchalik ham qo'g'irchoq tomoshalarini ko'rsatish jarayonida musiqaning o'rni beqiyos bo'lgan. Bir so'z aytganda qo'g'irchoq teatri tomoshalarini musiqasiz tasavvur qilish giyin. Musiqa qo'g'irchoq teatri spektallarini asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ijodning pillapoyalaridan boshlab talabalarni ish uslubini musiqaning har xil janida ishlashga o'rgatish kerak. Buning uchun kursda alohida musiqa bo'lishi shart. Chunki qo'llarning harakatchanligini tabiyalab, plastikaga asoslangan holatiga moslashuvi jarayonda, turi xil obrazaring harakterli xususiyati va harakat yo'nalishiga qarab musiqa tanlanadi. Musia jodning mohiyatini ochishda juda katta ahamiyat Kasb etadi. Eng muhimi asar uchun tanlangan yoki aynan shu asar uchun bastlangan musiqa ijodning sermahsul bolishiga katta yordam beradigan omillardar biridir. Asarni janridan kelib chiqqan

holda musiqaning temasi aniq bolishi kerak. Shunda ijod jarayonida maqsadga erishish uchun to'g'ri yo'l topilgan bo'ladi. Tanlangan musiqaviy kompozitsiya va etyudlar darsdan-darsga qadar ishlanish, charxlanib, ma'no va mazmun jihatidan boyib borishi kerak. Semestr yakunida yaxlit chiroyli obrazlar guldastasi, ya'ni "EKZERSIS" hamda bir, ikki va undan ortig talabalar ishtirokidagi musigali etyudlar yakuniy reytingda namoyish gilinishi mumkin. Bu jarayon talabalarning qo'l harakatchanligi va qo'l plastikasi qay darajada o'zlashtirgali hammda ekzersis va etyudlarda uning professionallik darajasini ko'rsatishi bilan belgilanadi.<sup>1</sup>

Bir so'z bilan aytganda, obrazli qo'llarni yaratish uchun ijodkorda kuzatuvchanlik ham yaxshigina rivojlangan bo'lishi kerak. Atrof-muhitda bo'ladigan voqealarni anglashi, kichik jihatlariga ham ahamiyatli bo'lishi lozim. Chunki, kuzatuvchan inson har qanday voqeani, hayvoni, yoki tabiatni obrazli qo'llar orqali mukammal darajada tasvirlab bera oladi.

---

<sup>1</sup> MARYAM ASHUROVA  
A'ZAMJON ABDUXALILOV  
AKTYORLIK MAHORATI TOSHKENT-2021 69-70-betlar

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. MARYAM ASHUROVA A'ZAMJON ABDUXALILOV AKTYORLIK MAHORATI TOSHKENT-2021
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalgimiz bilan birga quramiz. 2017 yil
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017 yil
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz. 2017 yil
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI
6. Chto i kak v teatre kukol - M.: 1980 y. VTO
7. Istiqloq va milliy teatr" to'plami. "Yangi asr avlodi" - T. 2002
8. Qodirov M. "Tomosha san'atlari o'tmishda va bugun" - T: "Mumtoz sO'Z 2011
9. Qodirov M. Qo'g'irchoq teatri tarixi" - T., 2010
10. V professional'noy shkole kukolnika", sbornik statey - L. 1979
11. Demmeni Y. "Prizvaniye kukolnik" - L. 1986
12. Yangi davr san'ati: an'anaviylik va transformatsion jarayonlar - T. 2013
13. Yangi davr san'ati: An'anaviylik va transformatsion jarayonlar - T. 2013
14. Shaxs ma'naviyatini shakllanishida san'at va madaniyatning roli - T. 2014
15. San'at va madaniyat ta'limi-badiiy harakatlantiruvchi kuch Toshkent, 2014 taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuch